


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori
X.B.Yunusov
2024-yil "02" 08



OTLARNING KO'Z KASALLIKLARI

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	– Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	840000	– Veterinariya
Mutaxassislik:	70840107	– Trening va ot kasalliklari

Fan modul kodi OKK1306		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Itlarning ko'z kasalliklari	90		90	180
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistr talabalarga otlardagi ko'z kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlarni bajarish, ko'z patologiyalarini o'rganish va to'g'rilash, ko'z kasalliklarining etiologiyasi va patogenezini o'rganish bilan birgalikda, ularni davolash va oldini olishni o'rgatish.</p> <p>Fanning vazifasi - otlarda uchraydigan ko'z kasalliklarining kelib chiqish sabablarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqish va tavsiya qilish. Ko'zlari kasallangan hayvonlarda zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda malakali magistrnlarni tayyorlash.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Fanga kirish. Ko'z soqqasi va yordamchi – himoya apparatining anatom – topografik tuzilishi nazariyasi</p> <p>“Otlarning ko'z kasalliklari” fanining maqsadi va vazifalari. “Otlarning ko'z kasalliklari” fanining rivojlanishi. Ko'z kasalliklari rivojlanishi mexanizmida yani patogenezida oliy asab tizimining ahamiyati.</p> <p>2-mavzu. Ko'z yordamchi – himoya apparatining anatom – topografik tuzilishi nazariyasi</p> <p>Otlarda ko'rish – a'zoning rivojlanishi. Ko'z soqqasining anatom – topografik tuzilishi. Ko'z yordamchi – himoya apparatining tuzilishi. Ko'rish – nerv apparati yoki ko'zning to'r pardasi anatom – topografik tuzilishi. Ko'z soqqasining nur sindiruvchi muhitlari. Ko'z yordamchi – himoya apparatining anatom – topografik tuzilishi. Ko'z soqqasini harakatlantiruvchi a'zolar.</p> <p>3-mavzu. Ko'zni va uni ximoya qiluvchi a'zolari tekshirish</p> <p>Otlarda ko'z refraksiyaning ilmiy asoslari. Otlarda ko'zning akkomodatsiyasi.</p>				

Monokulyar va binokulyar ko'rish tamoyillari. Otlarning ko'rish qobiliyatini tekshirish. Otlarda ko'z yoshi yo'llarini tekshirish. Otlarda ko'z konyunktivasi va shox pardasidan olingan tamg'alarni tekshirish.

4-mavzu. Ko'zni va uni ximoya qiluvchi a'zolari maxsus tekshirish

Ko'zning shox pardasini keratioskopiya usulida tekshirish. Ko'z soqqasining jldingi va ketingi kameralarini Purkinye – Sanson tasvirlari usulida tekshirish. Ko'zni oftalmoskop bilan tekshirish. O'tuvchi yorug'lik bilan ko'z gavharini va shishasimon tanani tekshirish. Otlarda ko'z tubini tekshirish. Uy hayvonlari ko'z tubining tabiiy manzarasi (ko'rinishi).

5-mavzu. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan diagnostik va dori vositalarining nazariy tavsifi

Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan diagnostik va dori vositalar to'grisida umumiy ma'lumotlar. Ko'z tomchilari. Dorivor ko'z plyonkalari. Diagnostik vositalar. Kuydiruvchi va burishtiruvchi (qotiruvchi) vositalar. Qorachiqni toraytiruvchi va kengaytiruvchi moddalarning ilmiy tamoyillari. To'qimalarga qo'zg'atuvchi ta'sir etadigan vositalar.

6-mavzu. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan diagnostik va antimikrobli vositalar

Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan diagnostik vositalar. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan antimikrobli vositalar. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan antiseptik vositalar.

7-mavzu. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan dori vositalarining nazariy tavsifi

Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan sulfanilamidli preparatlar. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan antibiotik vositalar. Veterinariya oftalmologiyasida qo'llanadigan to'qimali terapiya usullari va biologik vositalar. Lizotsimoterapiyani otlar ko'zlarining kasalliklarida qo'llash.

8-mavzu. Orbita sohasidagi shikastlanishlar

Orbita sohasidagi shikastlanishlar to'grisida umumiy ma'lumotlar. Ko'z orbitasi sohasidagi jarohatlarning etiologiyasi, klinik belgilari, ularni davolash va oldini olish tamoyillari. Ko'z orbitasi sohasidagi lat yeyishlarning etiologiyasi, klinik belgilari, ularni davolash. Orbita suyaklarining sinishi va yorilishlarining etiologiyasi, klinik belgilari, ularni davolash.

9-mavzu. Orbita sohasidagi kasalliklar

Ko'zorti flegmonasiningning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillarining ilmiy va nazariy – eksperimental asoslari. Orbita sohasidagi va ko'z qovoqlari o'smalarning turlari, etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillarining ilmiy va nazariy – eksperimental asoslari.

10-mavzu. Ko'z qovoqlari kasalliklari

Ko'z qovoqlari chetlarining yopishishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Yuqori qovoqning tushib qolishi. Qovoqlarning ichkariga qayrilishi etiologiyasi, klinik belgilari, davolash. Qovoqlarning tashqariga qayrilishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash. Kipriklarning noto'g'ri joylashishi. Trixiasis etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash.

11-mavzu. Ko'z yoshi apparati kasalliklari

Otlar ko'zlari ko'z yoshi bezining yallig'lanishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillarining ilmiy va nazariy – eksperimental asoslari. Ko'z yoshi – burun kanalining torayishi, tiqilishi va bitib qolishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash usullari va oldini olish tamoyillari.

12-mavzu. Ko'z shox pardasining yallig'lanishi

Otlar ko'zlari shox pardasi kasalliklarining umumiy tavsifi. Chuqur (stromal) yiringli keratitning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillarining ilmiy va nazariy – eksperimental asoslari. Uveal (shox pardoning ichki qavati) keratitning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillarining.

13-mavzu. Ko'z shox pardasining yallig'lanishsiz kechadigan kasalliklari

Otlar ko'zlarining shox pardasi kserozining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash. Itlar ko'zlarining shox pardasi keratokonusining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari. Itlar ko'zlarining shox pardasi keratoglobusining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari. Itlar ko'zlarining shox pardasi keratomalyatsiyasining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash.

14-mavzu. Rangli va tomirli pardalar anomaliyalarining ilmiy nazariyasi

Otlar ko'zlarining rangli parda yallig'lanishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillarining ilmiy va nazariy – eksperimental asoslari. Kipriksimon tana yallig'lanishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillarining ilmiy va nazariy – eksperimental asoslari.

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840107 - Trening va ot kasalliklari mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Otlarning ko'z kasalliklari" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qish xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassis bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Otlarning ko'z kasalliklari" fanidan hayvonlarda uchraydigan ko'z kasalliklarining kelib chiqish sabablarini aniqlash tamoyillarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Fundamental fanlardan biri bo'lgan "Otlarning ko'z kasalliklari" - fanning hayvonlar ko'zlari kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ish bajarish, ko'z patologiyalarini o'rganish va to'g'rilash, ko'z kasalliklarining etiologiyasi va patogenezi o'rganish bilan birgalikda, davolash va oldini olish o'rganish, shuningdek veterinariya oftalmologiyasi ko'zlari kasalliklarini hayvonlarda zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda o'rgatadigan fandir.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlarni uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, chorvachilik va veterinariya amaliyoti va fanning sohasidagi mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqaras shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarni kasalliklarni tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsalmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzu rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Otlarning ko'z kasalliklari" fanini tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malakali talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Otlarning ko'z kasalliklari" fanini dasturini o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari
va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi
davlat markazi direktori.

Allamurodova M.M.

15-mavzu. Tomirli parda anomaliyalarining ilmiy nazariyasi

Otlar ko'zlarining tomirli trakti shikastlari va jarohatlarining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillari. Aseptik yoki eksudativ xorioiditning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash. Yiringli xorioiditning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish tamoyillari.

16-mavzu. To'r parda kasalliklari

Otlar ko'zlarining to'r pardasiga qon quyilishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. To'r parda yallig'lanishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. To'r parda o'rnidan ko'chishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish.

17-mavzu. Ko'z soqqasining ichki muhitlari kasalliklari, ularning etiopatogenezi, davolash va oldini olish

Ko'z gavharining o'rnidan siljishi va chiqishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Ko'z gavharining xiralashishi (katarakta) ning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Shishasimon tanaga qon quyilishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash. Shishasimon tananing siljishi va tashqariga chiqishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash. Shishasimon tana xiralashishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash.

18-mavzu. Ko'rish nervining asab kasalliklari

Ko'rish nervining retrobulbar nevrinitning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Ko'rish nervining untrabulbar nevrinitning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Ko'rish nervining atrofiyasining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish.

19-mavzu. Ko'zning umumiy kasalliklari, ularning etiopatogenezi, davolash va oldini olish

Panoftalmitning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Ko'z atrofiyasining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Hayvonlarda tomirli trakti infeksiyali yallig'lanishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish. Ko'zning vaqti-vaqti bilan kechadigan yallig'lanishining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish.

20-mavzu. Ko'zning umumiy kasalliklari, ularning etiopatogenezi, davolash va oldini olish

Ayrim bosh miya nervlari kasalliklaridan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari. Bosh miya kasalliklaridan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari. Markaziy asab tizimi kasalliklari dankelib chiqadigan ko'z kasalliklari. Ko'zning harakatlantiruvchi (motor) nervlari kasalliklari. Ko'z patologiyasini chaqiradigan ichki yuqumsiz kasalliklardan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari. Zaharlanishlardan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Otlar ko'zlarining tashqi tuzilishi.
2. Otlar ko'zlarining yordamchi – himoya apparati tuzilishi.
3. Ko'zning refraksiya va akkomodatsiyasini o'rganish.
4. Otlarning ko'rish qobiliyatini tekshirish.
5. Ko'z kon'yunktivasi va shox pardasidan olingan tamg'alarni tekshirish.
6. Otlar ko'zlarini maxsus asboblardan yordamida tekshirish.
7. O'tuvchi yorug'lik bilan Otlarning ko'z gavharini va shishasimon tanani tekshirish.
8. Otlarda ko'z tubini tekshirish.
9. Shox pardani teshish.
10. Erukatsiya, evissersiya va ekzenteratsiya usullarini qo'llash
11. Kataraktani ekstraksiya qilish.
12. Irdektsiyani bajarish.
13. Orbita sohasidagi jarohatlar va lat yeyishlarini davolash tartibi.
14. Otlarning ko'z orti flegmonasini davolash.
15. Yuqori qovoqning tushib qolishini davolash.
16. Qovoqlarning ichkariga va tashqariga qayrilishini davolash.
17. Ko'z yoshi bezi yallig'lanishi va Otlarning ko'z yoshi – burun kanalining torayishi, tiqilishini davolash.
18. Ko'z kon'yunktivasi yallig'lanishini davolash.
19. Chuqur (stromal) yiringli keratitni konservativ davolash.
20. Uveal keratitni davolash.
21. Ko'zning vaqti vaqti bilan kechadigan yallig'lanishini davolash.
22. Ko'z soqqasining ichki muhitlari kasalliklarini davolash.
23. Ko'z panoftalmitini davolash usullari.
24. Asab tizimi kasalliklari chaqiradigan ko'z kasalliklarini davolash.
25. Ichki yuqumsiz kasalliklari chaqiradigan ko'z kasalliklarini davolash.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob-uskunalar, preparatlar bilan jihozlangan

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840107 - Trening va ot kasalliklari mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Otlarning ko'z kasalliklari" fanning o'quv dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Otlarning ko'z kasalliklari" fanining rivojlanishi. Ko'rish nervi qanday tuzilgan va qanday vazifalarni bajaradi. Nurlarni sindiruvchi muhitlar qanday tuzilgan va qanday vazifalarni bajaradi. Ko'z kasalliklari rivojlanishi mexanizmi va patogenezi oliy asab tizimining ahamiyati.

Fundamental fanlardan biri bo'lgan "Otlarning ko'z kasalliklari" – fani hayvonlar ko'zlari kasalliklariga qarshi amaliyot sharoitida profilaktik ishlarni bajarish, ko'z patologiyalarini o'rganish va to'g'rilash, ko'z kasalliklarining etiologiyasi va patogenezi o'rganish bilan birgalikda, davolash va oldini olishni o'rganish, shuningdek veterinariyada ko'zlari kasallangan hayvonlarda zamonaviy konservativ davolash va operatsiya usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya qilish hamda o'rgatadigan fandir.

Fanni o'rganish uchun ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash uchun yetarli darajada soatlar ajratilgan bo'lib, chorvachilik va veterinariya amaliyoti va fani sohaslarining mutaxassisliklariga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarning tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'zini bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsalmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Otlarning ko'z kasalliklari" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. "Otlarning ko'z kasalliklari" fanining dasturini o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti,
"Veterinariya va urchitish patologiyasi"

laboratoriyasi mudiri, v.f.d., katta ilmiy xodim

O.U.Kuldashev



	2. www.veterinariyamedsinasi.uz 3. www.animaldiseases.com 4. www.veterinary@actavis.com
8.	Fan dasturi samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti kengashining 2024-yil "27"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.
9.	Fan modul uchun mas'ullar: R.M. Tashtemirov – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası professori, veterinariya fanlari nomzodi S.B. Abdiyev – SamDVMCHBU, "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrası katta o'qituvchisi v.f.f.d PhD
10.	Taqrizchilar: O.U. Kuldashv – Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti, "Veterinariya va urchitish patologiyasi" laboratoriyasi mudiri, v.f.d., kata ilmiy xodim. M.M. Allamurodova – Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori.

auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Orbita suyaklari kasalliklari.
2. Orbita yumshoq to'qimalari kasalliklari.
3. Ko'z sohasidagi teri kasalliklari.
4. Infekzion konyunktivitlar.
5. Invazion konyunktivitlar.
6. Yoppasiga uchraydigan ko'z kasalliklari.
7. Infekzion keratitlar.
8. Invazion keratitlar.
9. Sport otlarining ko'z kasalliklari.
10. Etiologiyasi noaniq ko'z kasalliklari.
11. Kataraktalar va ularning tasnifi.
12. Otlarning ko'z qovoq kasalliklari
13. Otlarning ko'z yosh apparati kasalliklari
14. Kipriklar kasalliklari
15. Parazitar ko'z kasalliklari
16. Otlarning ko'z kasalliklarini davolashda ishlatiladigan jihozlar
17. Ko'rish qobiliyatini kuchaytiruvchi vitaminlar
18. Saqlash sharoitining ko'z kasalliklari kelib chiqishidagi roli
19. Otlarning ko'z qon tomir kasalliklari
20. Vitamin almashinuvi buzilishidan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari
21. Modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari.
22. Zaharlanishlardan va kimyoviy moddalar ta'siridan kelib chiqadigan ko'z kasalliklari.
23. Ko'z kasalliklarini davolashning zamonaviy jarrohlik usullari va oldini olish chora-tadbirlari.
24. Ko'rish nervining asab kasalliklari.
25. Otlarning ko'z kasalliklarini chaqiradigan asab tizimi va ichki yuqumsiz kasalliklari.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha magistr talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, ko'z kasalliklari diagnostikasini, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

3.	<p>V. Ilmiy amaliyot (stajirovka).</p> <p>Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.</p> <p>Ilmiy amaliyot (Stajirovka):</p> <ul style="list-style-type: none"> – ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi; – fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi; – amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi; – kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim. <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi Ko'z da tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidolari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p>
4.	<p>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Magistr bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Olar ko'zlarini davolash ishlarini klinika va ferma sharoitida tashkil qilish, ko'z kasalliklarini davolashda zamonaviy jarrohlik asbob uskunalaridan foydalanish va ishlash, ko'z kasalliklarini kelib chiqish sabablarini nazariy asoslari, patogenezi, davolash va oldini olishni to'g'ri tashkil qilish, ko'z kasalliklaridan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar va davolashni samaradorligini aniqlash haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak; (bilim) • ko'zlari kasallangan hamda kasallikka gumon qilingan hayvonlarni umumiy va maxsus klinik, funksional, biokimyoviy, allergik va boshqa tekshirishlardan o'tkazish, ko'z kasalliklari paytida kasallikning birlamchi va ikkilamchi sabablarini aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish, Ko'zlari kasallangan hayvonlarga jarrohlik yordam ko'rsatishni to'g'ri tashkil qilishni, etiopatogenetik davolash hamda individual va guruhli oldini olish muolajalarini o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (ko'nikma) • ko'zlarda operatsiya o'tkazish jarayonida og'riqsizlantirish va narkoz usullarini qo'llash, operatsiyadan keyin kelib chiqadigan asoratlarni va ularni davolash va oldini olish, oftalmologiyada qo'llanadigan asbob uskunalarini qo'llash, Ko'zlari kasallangan hayvonlarga umumiy va maxsus klinik

	<p>tekshirishlar yordamida to'g'ri tashhis qo'yish, Ko'zlari kasallangan hayvonlarga jarrohlik yordam ko'rsatishni to'g'ri tashkil qilish malakasiga ega bo'lishi kerak (malaka)</p>
5.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
7.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tashtemirov R.M. "Veterinariya oftalmologiyasining nazariy asoslari". Toshkent. "Sharq", 2015. 2. Тимофеев С.В., Филиппов Ю.И и др. «Общая хирургия животных» Москва, "Зоомедлит". 2007. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet. 4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet. 5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet. 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni. 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori. 8. E. Christopher Orton, Eric Monnet, Small Animal Thoracic Surgery, this edition first published 2018, JohnWiley & Sons, Inc., USA <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyonet.uz